Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH ORQALI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Majidov Nizomjon**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xaridlarni amalga oshirish bo'limi" boshlig'i



**Annotatsiya:** Maqolada Davlat xaridlarni amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantrish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish, iqtisodiyotning, jumladan, sanoatni hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning yangi imkoniyatlari amalga oshirilishi yuzasidan izlanishlar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** tender, tanlov, yelektron auktsion savdolar, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish, karital qurilish.

**Abstract:** In the article, research was conducted on the development of competition, improvement of the quality of the manufactured products, implementation of new opportunities for supporting the economy, including industry and small business, through the implementation of state procurement.

**Key words:** tender, selection, electronic auction, direct contract, charitable construction.

**Аннотация:** В статье проведены исследования по вопросам развития конкуренции, повышения качества выпускаемой продукции, реализации новых возможностей поддержки экономики, в том числе промышленности и малого бизнеса, посредством осуществления государственных закупок.

**Ключевые слова:** тендер, отбор, электронный аукцион, прямой договор, благотворительное строительство.

## KIRISH

Ma'lumki, davlat xaridlari har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida katta ahamiyatga yega bo'lgan jarayon hisoblanib, u budjet barqarorligini saqlashning, shuningdek, davlat sektorini zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xaridlari tizimini oydinlashtirish, ushbu jarayonga kichik biznes subyektlarini jalb yetish, nafaqat tovar bozorida raqobat muxitini yaxshilash, balki budjet tashkilotlarini faoliyatini yaxshilash va sifatli maxsulotlar olish hamda keyingi faoliyatlarini rejasini tuzishda yengillik tug'dirishga yordam berish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi O'RQ-684-sonli qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonunning maqsadi davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat xaridlari yoki davlat yehtiyojlari uchun tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi davlat muassasalarini tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonining ajralmas qismidir. Turli mamlakatlardagi davlat xarid hajmi yalri ichki mahsulotning 5 foizdan 25 foizgacha bo'lib, davlat budgetining yarmigacha bo'lgan qismini tashkil qilishi mumkin. Bunday miqyoslar nafaqat davlatni har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar, ishlar va xizmatlarning yeng katta iste'molchisiga, balki o'z harakatlari iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy munosabatlar subyektiga aylantiradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Avvalo, aytib o'tish joizki, amaldagi qonunchiligidagi davlat ehtiyojlarini qondirish sifatini oshirish va optimallashtirish maqsadida "davlat buyurtmasi" ga yaxlit va aniq ta'rif yoki tayanch tushuncha mavjud emas. Bu bo'yicha L. M. Davletshina, V. S. Gladkov va boshqa bir qancha yosh olimlarning fikrlariga ko'ra, davlat buyurtmasining mavjud talqini uning asl mohiyatini aks ettirmay, "davlat buyurtmasi" va "davlat xaridi" tushunchalarini aralashtirib yubormoqda va bu bilan amaliyot tartibotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Давлетшина Л.М. Государственный заказ как инструмент проведения промышленной политики (на примере Республики Татарстан): Дисс. ... канд. экон. наук. Казань, 2007. С. 47; Гладков В.С. Государственный заказ в сфере государственного управления экономикой: Дисс. ... канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 2008. С. 14.



L. V. Andreyeva davlat xaridlarining huquqiy masalalarini o'rganishda "davlat ehtiyojlari"ni mustaqil ma'noga ega bo'lgan huquqiy tushuncha sifatida alohida ajratib ko'rsatdi. Bunda davlat va davlat buyurtmachilarining funksiya va vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat ehtiyojlarining tarkibiga tovar, ish va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar kiradi<sup>2</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mobaynida ilmiy tahlilning umumiyl uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tovar va xizmatlarni xarid yetish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin yegallaydi hamda fondlar va investitsiyani samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan uzluksish jarayon hisoblanadi. O'zbek tilidagi "xarid" termini (inglizchada, rrocurement - rrokyurment) "sotib olish" ma'nosi bilan bir xilda ishlatalib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq yevaziga olish demakdir (inglizchada, rrocurement of goods, works and services).

Davlat xaridi - bu davlat yehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari yevaziga sotib olishdir. Davlat xaridi davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiyl tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin: iqtisodiy infratuzilma (transport, kommunal xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar); ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, qamoqxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Keyingi raytda mamlakatimizda davlat xaridlari tizimi rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Davlat xaridlari budjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli va raqobatl usulda shaffof ishlatalishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu tizim investitsion muhitni yaratishda ham katta ahamiyatga yega.

O'zbekiston Respublikasi Rezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida ushbu tizim faoliyati uchun muhim chora-tadbirlar belgilangan.

Rezidentimizning 2021-yil 16-iyundagi farmonida davlat xaridlari tizimining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Shuningdek, 2021-yil 22-arrelda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonuni ham qabul qilindi. Albatta, bu hujjatlar tizim ishini takomillashtirishda muhim huquqiy asosdir.

Davlat xaridlari tovar xizmatlarini davlat buyutmachilari tomonidan o'z yehtiyojlari uchun rulli asosda xarid qilish hisoblanadi. Oddiy so'z bilan aytganda, har bir davlat buyutmachisi, ya'ni bu korxona bo'ladimi yoki budjet tashkiloti bo'ladimi, u avvalambor, o'ziga kerakli bo'lgan tovar xizmatlarini xarid qiladi. Davlat xaridlari rplatformasi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Mana o'zingiz ham bozorga borganingizda, yeng ma'qul, sifatlari va arzon tovari xarid qilasiz. Shunga o'xshash bu tizim ham ana shunday bozorni yaratib beradigan rplatformadir.

O'zbekiston Respublikasi Rezidentining 2021-yil 2-iyuldagagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash ustuvor vazifalarimizdan. Unga muvofiq, korrorativ tashkilotlarni davlat xaridlari tizimiga jalb qilinishi va ularni mazkur tizimda amalga oshirilayotgan xaridlarni monitoring o'tkazish ko'zda tutildi.

Tizimda beshta xarid turi, ya'ni yelektron do'kon, auksion savdolari, yeng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari asosida xaridlarni amalga oshirish mumkin. Bu raqobatl usul hisoblanadi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xaridlar faoliyati ham mavjud. Yelektron auksion va yelektron do'kon orqali shartnomalar tuzish avtomatlashtirilgan. Bu jarayonda inson omili yo'q. Keyingi yillarda tizimni to'liq avtomatlashtirishni rejalashtirganimiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil yetish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Moliya vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlilik va idoralar hamkorligida mahalliy va xorijiy yeksrertlarni jalb qilgan holda Davlat xaridlari tizimini rivojlantirish strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Unda tizimni yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkorali kni ta'minlash, shuningdek, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ayol tadbirkorlar, yosh tadbirlarga keng imkoniyat berish borasida qator vazifalar belgilangan.

<sup>2</sup> Андреева Л.В. Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование. М.: Волтерс Клювер, 2009. С. 24.



Davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalar rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir yetadi:

- ochiq tenderlarni ye'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir yetadi;
- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir yetish mumkin;
- kichik biznes vakillar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy yetish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir yetish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarli mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali yerishish mumkin.

O'zbekistonda davlat yehtiyorlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmi mavjud me'yoriy-huquqiy aktlar asosida amalga oshiriladi. Davlat zaxiralarni shakllantirish, davlat yehtiyorlari uchun joriy va karital xarajatlarni amalga oshirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini, sanoat, qurilish sohalarida davlat mablag'lari hisobidan xaridni amalga oshirish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirishning dolzarbliги ortmoqda.

Yangi mexanizmning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib, bunda akkreditatsiyadan o'tish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan, qog'oz ko'rinishidagi hujjat talab yetilmaydi, shartnomani ro'yxatdan o'tkazish axborot almashinuvi yevaziga amalga oshiriladi, barcha xabarnomalar shaxsiy kabinet orqali jo'natiladi, rul mablag'larini boshqarishda yelektron raqamli imzodan faol foydalaniladi, buyurtmachiga mahsulot yetkazib berish, yetkazib beruvchining mahsulotiga to'lov kafolatlangan.

2022-yilning birinchi yarmida "O'zRTXB" AJ da 13,7 trln so'mlik bitimlar tuzilib, bu o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 43,2% ga ko'rdir. O'z navbatida ijobiy dinamika birjaning barcha savdo platformalarida saqlandi. Xususan, birja bitimlarining hajmi 20,6% ga oshib, 9,4 trln so'mga yetdi.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishtiroti bilan tuzilgan bitimlarning umumiyligi qiyati o'tgan yilning birinchi yarmiga nisbatan 15% ga o'sib, 4,7 trln so'mni tashkil yetdi. Ya'ni tadbirkorlar birja orqali 3,2 trln so'mlik tovar resurslarini xarid qilib, 1,5 trln so'mlik mahsulot sotdilar. Bunda tadbirkorlar mahsulotlarini sotish hajmi 16% ga o'sidi. Bu yesa biznes vakillarining birja savdolari va yelektron tijoratda ishtirot yetishga bo'lgan qiziqishlari oshganligidan dalolat beradi.

O'zRTXBda sotilgan mahsulotlarning umumiyligi hajmi 13,8 trln so'mni tashkil yetgan. Xususan, birja savdolaring hajmi 11,3 trln so'm, ko'rgazma-yarmarka savdolari – 1,6 trln so'm, davlat xaridlari – 438,3 mlrd so'm, korrorativ xaridlar – 364,7 mlrd so'm, hamda yangi savdo platformasi yelektron katalog tizimida 59,5 mlrd so'mlik bitimlar imzolangan.

**1-jadval: 2021-2022-yillarda O'zbekiston tovar-xomashyo birjasida davlat xaridlari bo'yicha bitimlar hajmining dinamikasi<sup>3</sup>**

Ko'rsatgichlar	2021-yil	2022-yil	% da
Davlat xaridlari, jami	mlrd.so'm	3891,5	14975,3
Boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	mlrd.so'm	714,9	2 195,6
Boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	%	15,5	12,8
Bitimning o'rtacha bahosi	ming so'm	8541,6	34984,0
Buydjet buyurtmachilarning yelektron auksioni	mlrd.so'm	1275,2	4 261,3
boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	mlrd.so'm	240,4	344,9
boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	%	15,9	7,5
Bitimning o'rtacha bahosi	ming so'm	11521,7	113174,7
Korrorativ buyurtmachilarning yelektron auksioni	mlrd.so'm	1 991,8	7 389,1
boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	mlrd.so'm	288,1	1 073,1
boshlang'ich bahoga nisbatan mablag'larni tejalishi	%	12,6	12,7
Bitimning o'rtacha bahosi	ming so'm	35929,4	344206,6

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilda davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlar hajmi 14975,3 mlrd. so'mni tashkil yetgani holda oldingi yilga nisbatan yuqori foizga oshgan. Budget mablag'larining tejalishi 11,083,8 mlrd. so'mni tashkil yetib 2021-yilga nisbatan oshgan. Mazkur bitimlarda qatnashgan kichik biznes subyektlari soni yesa 2021-yilga nisbatan 284 foizga ko'raygan hamda ularning yetkazib beruvchilarning

3 <https://uzex.uz/>

4 <https://uzex.uz> – sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




umumiyl sonidagi ulushi 97,0 foizga teng bo'lgan. Yuqoridagi keltirilgan holatlar, davlat xaridlari bo'yicha savdo tizimini rivojlantirish va unda kichik biznes subyektlarning faolligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali tarzda amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi.

Davlat xaridlarda yangi savdo tizimi – "elektron katalog" (catalog.uzex.uz) ning joriy yetilganligi budjet tashkilotlari uchun yeng zarur tovarlarni xarid qilish tartibini sezilarini darajada soddalashtirdi.

2021-yilning birinchi yarmida "D-xarid" davlat xaridlari bo'yicha o'tkazilgan elektron savdolar hajmi 26,5% ga o'sib, 344,9 mlrd so'mni tashkil yetdi. Budjet mablag'larini tejalishi yesa 55,6% ga, ya'ni 104,5 mlrd so'mgacha oshdi. Kichik biznes subyektlarning davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlarning soni va hajmidagi ulushi 99% ni tashkil yetdi. Yelektron katalog savdo tizimida 41,7 mlrd so'mlik yeng zarur tovarlar xarid qilindi, o'sish – 25,5%. Ushbu tizimda budjet mablag'larining iqtisod qilinishi 93% ga o'sdi va 23,8 mlrd so'mni tashkil yetdi. "E-xarid" – korrorativ xaridlarning hajmi 23,2% ga, ya'ni 267,6 mlrd so'mgacha ko'tarildi. Bunda moliya mablag'larini tejalishi 2021 yilning birinchi yarmiga nisbatan 29% ga o'sib 1073,1 mlrd so'mni tashkil yetdi. Kichik biznes subyektlarning korrorativ xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlarning soni va hajmidagi ulushi 97% ni tashkil yetdi.

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilda O'zbekiston tovar-xomashyo birjasida amalga oshirilgan jami bitimlar hajmida davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlarning ulushi 15,5 foizni tashkil yetgani holda 2021-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 foizli runktga oshgan. Mazkur holat, davlat xaridlari bo'yicha birja savdolarini faollashtirish lozimligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, birja savdolaridagi bitimlar korrorativ xaridlari bo'yicha bitimlar hajmining ortganligini ham qayd yetish lozim, jumladan korrorativ xaridlari bo'yicha bitimlarning jami bitimlardagi ulushi 2021-yilda 12,6 foizga teng bo'lgan holda 2022-yilga nisbatan 0,1 foizli runktga oshgan.



1-rasm: 2022-2023-yillarda O'zbekiston tovar-xomashyo birjasida bitimlar tarkibi<sup>5</sup> (mlrd so'mda)

Umumiyl holda bitimlar hajmining oshishiga asosan quyidagilar ijobji ta'sir ko'rsatgan, ya'ni mijozlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida birjaning maxsus axborot rortalida yangi interaktiv xizmatlar, shu jumladan narxlar monitoringi, fuqarolar murojaati, onlayn-maslahat, call-markaz va forum joriy yetildi. Davlat xaridlari vefsayıti (dxarid.uzex.uz)dan foydalanish imkoniyatlari va qulayliklari kengaytirildi. Arbitraj, distsirlinar va listing komissiyalari bo'yicha elektron modular, shuningdek, birja, Davlat raqobat qo'mitasi, "O'zstandart"

<sup>5</sup> <https://uzex.uz> – sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



agentligi, O'zdavneftgazinsrekteziya o'rtaida ma'lumotlar almashinuv bazasining dasturi yaratildi va amalda tadbiq yetildi. Ushbu dasturiy mahsulotlar birja va uning mijozlari o'rtaida yanada samaraliroq o'zaro munosabatlarni o'rnatish imkonini berdi.

Shuni qayd yetish lozimki, davlat yehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid yetish bo'yicha rasmiy ma'lumotlarning chegaralanganligi, ushbu sohani tahlil yetishda kompleks yondashuvni amalga oshirishni qiyinlashdiradi.

Qurilishga, texnik qayta qurollantirish, rekonstruktsiya, bino va inshootlarni karital ta'mirlash bo'yicha rudrat savdolarini o'tkazish uchun tayyorlangan hujjatlarning tarkibida majburiy tartibda tanlov hujjatlarining texnik qismini ishlab chiqish uchun asos bo'lgan loyiha hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi davlat yeksrertizasining ijobjiy xulosasi bo'lishi kerak.

Tanlov va boshqa tanlov savdosining hujjatlarni yeksrertizadan o'tkazish, tanlov savdolari o'tkazish usuli va uslublari qo'llanishining maqsadga muvofiqligi va asoslanganligini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi (Davarxitektqurilish)<sup>6</sup>.

Eksertizaga taqdim yetiladigan hujjatlar. Buyurtmachi yeksrertizadan o'tkazish uchun tanlov savdosi hujjatlarining to'liq to'rlamini hamda ruxsat beruvchi hujjatlarni va matbuotda nashr yetish uchun tayyorlangan ye'lomning to'la matnini tasdiqlangan holda kuzatuv xati bilan taqdim yetadi.

### Tanlov hujjatlari

**Umumiyl**

**Texnik**

**Tijorat**

**2-rasm:** Tanlov hujjatlari klassifikatsiyasi<sup>7</sup>

Texnik qism - bu talabgorlar o'z tanlov takliflarini qiymatini hisob-kitob qilishi uchun zarur va yetarli bo'lgan xarid qilinayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori va xarakteristikasini, ishlarning bajarilish (tovar yetkazib berish, xizmatlar) muddati, shuningdek tanlov savdolari bir bosqichda amalga oshirilganda tanlov savdolari buyurtmachisi va g'olib tomon o'rtaida tuziladigan shartnomadan so'nggi hisob-kitoblarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlardan iborat hujjatlar yig'ma jildi.

Eksertizada tekshiriladigan va tahlil qilinadigan asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

- tanlov hujjatlari, shu jumladan, ruxsat beruvchi hujjatlarning to'la hajmda mavjudligi;
- bir xil nom, yagona atama va ularning ifoda yetilishidan foydalaniilganligi;
- savdo ishtirokchilariga qo'yiladigan talablarga amal qilinganligi (litsenziya, yetarli ish tajribasining borligi, moliyaviy holati, texnika bilan jihozlanishi, savdoning aniq inshootlariga qarab boshqa malaka talablari);
- takliflarni texnik va moliyaviy baholashda mezonlarni qo'llashning xolisonaligi va ularning ahamiyati;
- tanlov hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilish.

Qishloq xo'jalik sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida muhim ahamiyatga yega bo'lgan tarmoq hisoblanadi. Ushbu sohadagi mavjud ishlab chiqarish va tabiiy imkoniyatlarni inobatga olib, hukumat tomonidan olib borilayotgan agrar siyosat quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- mamlakat yeksort va valyuta balansi barqarorligini ta'minlashga yetarli darajada bo'lgan raxta xom ashyosini yetishtirishni ta'minlash;
- mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash uchun, don (g'alla) mustaqilligiga yerishish;
- qishloq xo'jaligi sohasida shakllangan daromadlarni sanoat sohalari hamda ijtimoiy va bozor infratuzil-malarining rivoji uchun yo'naltirish;
- qishloq aholisning turmush darajasini yaxshilash.

Hozirgi raytda Respublikada quyidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari davlat xaridining obyektlari sanaladi: raxta xom-ashyosi, g'alla, sholi va irak rillasini yetishtirish.

6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Karital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2003-yil 3-iyuldag'i 302-soni qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida karital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida nizom".

7 Burxonov U. Davlat xaridi. – Toshkent, 2010. – 160 b.




2022-yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi<sup>8</sup> Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usullarini amaliyotga joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror Shuningdek, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qarorda raxta xom-ashyosi uchun bo'naklar ajratish va oxirgi hisob-kitoblar uchun to'lovlarni fond tomonidan amalga oshirish mexanizmi ko'rsatib o'tilgan.

Davlat yehtiyojlari uchun raxta xom-ashyosini yetkazib berish uchun qishloq xo'jalik mahsuloti yetishti-ruvchilarga bo'naklar, yuqorida ko'rsatilgan fond tomonidan maqsadli mablag'larni (alohida transh shaklida) Agrobankning viloyat boshqarmalari orqali amalga oshiriladi.

Transhlar hajmi mablag'larga bo'lgan yillik talab hisob-kitoblari rrochnozi orqali aniqlanadi. Yekiladigan urug'lik chigitlar qiymati bo'naklar hisobidan qorlanadi. Fond o'zining "Kontraktatsiya va raxta uchun hisob-kitoblar markaz"laridagi hududiy insrektorlari va Agrobank hamkorligida mablag'larni maqsadli ishlatalishi monitoringini amalga oshiradi.

Raxta va g'alla sotish hamda sotib olish sohasida hukumat nazorati saqlanib qolgan bo'lsada, hukumat, keyingi yillarda ushbu mahsulotlarni davlat xaridi baholarini sezilarli darajada oshirdi, shuningdek, ushbu mahsulotlarni muqobil sotish yo'llari kengaytirildi. Raxta respublika jami yeksortining hajmida 5,2 foiz ulushga yega va mamlakat valyuta tushumlarining barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Majburiyat, huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asosan, uni qabul qilish huquqiga yega bo'lgan shaxs tomonidan qabul qilinadi.



3-rasm: Majburiatlarni hisobga olish tizimidagi omillar<sup>9</sup>

Majburiatlarni hisobga olish tizimida uch asosiy omil mavjud. Budget mablag'lari oluvchi budget tashkiloti rahbari, yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqa mas'ul shaxslar, majburiatlarni qabul qilish huquqiga yega bo'ladilar.

Yuridik majburiyat – yuridik (jismoniy) shaxslarning imzolangan shartnomalar va tegishli hukumat organining qarori natijasida ikkinchi shaxs oldida yuzaga keladigan majburiyatidir<sup>10</sup>.

## XULOSA

Davlat yehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'r jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'rgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi. Davlat xaridi tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bu qonuniy va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaldagilarini takomillashtirish, budget tashkilotlarida xarid jarayonini tashkil yetish va yuritish bo'yicha uslubiy bazani yaratish, budget tashkilotlarida xarid jarayoniga mas'ul bo'lgan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, davlat xaridlari mexanizmini mukammallashtirishdan iboratdir.

Mahalliy budgetdan mablag' olib faoliyat yurituvchi tashkilot va muassasalar tomonidan vaqtinchalik foydalaniilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini keng miqyosda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berish lozim. Bo'shab qolgan muassasalar binolarni, asbob-uskunalarini kim-oshdi savdosi orqali sotilishi keng qo'llash va yalri ko'laming kengaytirilishini ta'minlash darkor.

8 <https://lex.uz/uz/docs/-6026643>

9 Fuqarolik Kodeksi va 1998-yil 29-avgustdagи 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

10 2007-yil 5-dekabrda 1746-sonli ro'yxatdan o'tgan, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'lmalarida budgetdan mablag' oluvchilarning hisobvaraqlarini yuritish qoidalari". Moliya vazirligining 2007-yil 17-oktyabrdagi 93-sonli buyrug'iga ilova



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshina L.M. Gosudarstvennyy zakaz kak instrument provedeniya promyshlennoy politiki (naprimere Respublikи Tatarstan): Diss.kand. ekon. nauk. Kazan, 2007.
2. Andreyeva L.V. Zakupki tovarov dlya federalnykh gosudarstvennykh nujd: pravovoe regulirovaniye. –M.:Volters Kluver, 2009. S. 24.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Karital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2003-yil 3-iyuldagagi 302-sod qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida karital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida nizom".
4. Burxanov U. Davlat xaridi. – Toshkent, 2010. – 160 b.
5. Fuqarolik Kodeksi va 1998-yil 29-avgustdagи 670-l-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.
6. 2007-yil 5-dekabrda 1746-sonli ro'yxatdan o'tgan, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalarida budjetdan mablag' oluvchilarining hisobvaraqlarini yuritish qoidalari". Moliya vazirligining 2007-yil 17-oktyabrdagi 93-sonli buyrug'iiga ilova.
7. <https://uzex.uz>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-6026643>

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

